



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 344 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	10
<i>Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	15
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari	21
<i>Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati	25
<i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i>	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni	28
<i>O'rinova Nilufar Muxammadovna</i>	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi	32
<i>Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.</i>	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari	37
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	41
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	44
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ilhombek o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida)	47
<i>Abduraxmanova Charos Burxanovna</i>	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities	51
<i>Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna</i>	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi	55
<i>Allanazarova Sadoqat Azimovna</i>	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari	59
<i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов)	63
<i>Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова</i>	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students	67
<i>D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova</i>	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish	70
<i>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
<i>Jumanov Sherzod Saloyevich</i>	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari	78
<i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i>	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari	83
<i>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari	86
<i>Qahramonova Xumora Qahramonovna</i>	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati	91
<i>Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich</i>	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ	95
Мансурова Гульмира Рафазловна	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики	101
Рауфова Озода	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari	105
Choriyeva Dildora Ismat qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida	109
Tangriyev Abdulkarim Tovashevich	
O'qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	114
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida STEAM ta'limi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish	120
Kozimova Mehriniso Akbarali qizi	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	125
O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi	129
Sharipov Nodir Botir o'g'li	
Management of Medical Emergencies in Outpatient Dental Clinics.....	133
Adurazzoqov Kamoliddin, Umarov Maruf, Buzrukhoda Javohir	
Psixologik farovonlikning asosiy komponentlari, ta'sir qiluvchi omillar va zamonaviy baholash usullari	138
Aliyev Samariddin Murotali o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	142
Boymurodova Sadoqat Istam qizi	
O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.....	146
Gadoymurodova Kamola Sunnatulloevna	
Oilada bola tarbiyasining ahamiyati va uning shaxs kamolotiga ta'siri	151
Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Oilimova Mushtariy Xaydarali qizi	
Art-pedagogika vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik ahamiyati	154
Gulboyev Akbar Tuxtyayevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tadbirlar orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish	158
Homidov Husniddin Kupaysinovich, Yusupova Gulzor Yunusjon qizi, Norbekova Sevinch Musurmon qizi	
Bone-Grafting Materials in Oral Surgery: Classification, Biological Properties, and Clinical Application	161
Jumaqulova Mashhura Alishevovna, Buzrukhoda Javohir Davronovich	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik	166
Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi	
Using STEM Technologies to Foster Rational Thinking in the Dentistry	169
Khonimqulov Javlon, Burkhonova Zarafuz	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini montessori metodikasi vositasida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish usullari modeli.....	173
Mahbuba Yusupova Rustam qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni integrativ yondashuv asosida shakllantirish metodikasining samaradorligi.....	177
Nasimova N. Q.	
Analysis of Scanning Techniques Used in Orthodontic Dentistry	182
Nasrullayev Javlonbek Ta'atonovich, Rahimberdiyev Rustam Abdunosirovich	
Zamonaviylik - ta'lim konsepsiyasida asosiy mezon sifatida	187
Ochilova Gulnoza Odilovna	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi 191 Qahhorova Sojida Bahodir qizi, Zokirov Javoxir G'aybullo o'g'li	191
	Diqqat va xotira jarayonlarida raqamli texnologiyalarning roli 196 Salomova Nargiza Sattorovna	196
	Talabalarda kasbiy refleksiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning empirik tahlili..... 200 Shukurova Nargiza Ikramovna	200
	Gimnastikachi qizlarda egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantirish jarayonida shikastlanishlarning oldini olish 205 Sultanova Musharafxon Xudoyqul qizi	205
	Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish... 210 Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna	210
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari 216 Uralova Nurxon Maxadovna	216
	Naqshbandiya qadriyatlarini bo'lg'usi o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni..... 220 Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna	220
	Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari 223 Xo'jamberdiyeva Maftuna Norqobilovna, Sanaqulova Sevinch Baxtiyor qizi	223
	Developing Logical Thinking via the Use of STEM Technology 226 Yarmuhammedov Nabijon Navruzovich, Burkhonova Zarafuz	226
	Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati 229 Yo'ldoshboyeva Zulfiya Ravshan qizi, Jumayev Abdilxakim Turdiyevich	229
	Значение предмета физического воспитания и спортивной метрологии в физическом воспитании молодежи 233 Маматкулов Равшанжон Солижонович	233
	Аксиологические аспекты диалога культур в романе Сухбата Афлатуни "Рай Земной" 237 Чернова Татьяна Алексеевна, Худойназаров Сардорбек	237
	Maktab boshqaruvida ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari..... 240 Akbutayeva Gulasal Uzoq qizi	240
	Features of Verbal and Non-Verbal Communication in Teaching Foreign Languages in Higher Education Institutions 248 Gulnoza Aslamovna Azimkulova	248
	Chaenomeles Japonica (Thunb.) Lindl. Ex Spach mevalaridan ajratib olingan polifenol va pektin komplekslarining ichak mikrobiotasi, oksidlovchi stress va immun javobga ta'sirini molekulyar-biologik usullar asosida tadqiq etish 251 Ergasheva Nigora G'ayratovna	251
	Contemporary Linguodidactic Trends in Teaching English in Higher Education 259 Khudoyarova Ziyoda Maratovna	259
	Yuqori sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning muammo va imkoniyatlari..... 264 Layloxon Xabibullayeva Tursunali qizi	264
	Raqamli sport pedagogikasi va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillari..... 269 Matvapayev Azizbek Gaibnazar o'g'li	269
	Sun'iy intellektga qaramlik: raqamli addiksiya evolyutsiyasining yangi bosqichi 273 Mo'minxo'jayeva Zuhra Alimjon qizi	273
	Linguo-Cognitive Modeling of The Relationship Between Life and Death In Literary Texts: a Comparative Analysis (Based on 20 th -Century English and Karakalpak Works)..... 279 Najimova Perizad Arslanbay qizi	279
	Talabalar intellektual qobiliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari 283 Shodiyeva Charos Ravshan qizi	283
	Ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashga qaratilgan mashg'ulotlarining asosiy bosqichlari 286 Xaytova Farida Kuchkarovna	286



Raqamli va an'anaviy o'qish: qiyosiy tahlil.....	292
<i>Mashrapova Sevara Xabibovna</i>	
Mustahkam oila qadriyatlari va ularning zamonaviy jamiyat rivojiga ta'siri.....	296
<i>Soyibova Bonu O'tkir qizi</i>	
Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik mohiyati	301
<i>Xoliqov Farxod Karomatillo o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar: sun'iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish metodikasi...	305
<i>Aminov Shavkatjon Sobir o'g'li, Abdusattarova Muhlisaxon Foziljon qizi, Berdiyaroova Jasmena Sherzodjon qizi</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochilarda koordinatsion qobiliyatlarni shakllantirishning samarali vositalari	311
<i>Jumanova Iroda Shokirjon qizi</i>	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompEtensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.....	315
<i>Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi</i>	
Xorijiy tillarda yozma ish turlarini o'rganishning o'ziga xos jihatlari	319
<i>Omonova Sarvinoz</i>	
Can Duolingo Reduce Speaking Anxiety: A Literature-Based Analysis	322
<i>Qodirqulova Ra'no</i>	
Kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini takomillashtirish	326
<i>Sa'dullayeva Shahzoda Nuriddin qizi</i>	
Zamonaviy psixologning kasbiy kompetensiyasi: krizisli vaziyatlarda ishlash texnologiyalari.....	330
<i>Shirinov Otabek Tualovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari	333
<i>Uralova Nurxon Maxadovna</i>	
Иммерсивные технологии в обучении русскому языку как иностранному: современные подходы и перспективы	337
<i>Абдусаламова Адига Каримджановна</i>	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов филологического направления русскому языку в сопоставлении с узбекским языком	340
<i>Касимов А. Б.</i>	

ZAMONAVIY PSIXOLOGNING KASBIY KOMPETENSIYASI: KRIZISLI VAZIYATLARDA ISHLASH TEXNOLOGIYALARI

Shirinov Otabek Tuvalovich

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi Tillar, pedagogika va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasida o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy psixologning kasbiy kompetensiyasi krizisli vaziyatlarda samarali ishlash nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Krizis holatlarining psixologik mazmuni, ularning shaxs ruhiyatiga ta'siri hamda psixologik yordam ko'rsatishning zamonaviy texnologiyalari yoritiladi. Maqolada psixologning diagnostik, kommunikativ, emotsional barqarorlik, etik va refleksiv kompetensiyalari alohida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, psixologik birinchi yordam, krizis intervensiyasi, xavfni baholash, resurslarni faollashtirish va keyingi rehabilitatsiya bosqichlari ilmiy asosda izohlanadi. Tadqiqotda krizisli vaziyatlarda psixolog faoliyatining insonparvarlik, ehtiyotkorlik va kasbiy mas'uliyat tamoyillariga tayanishi zarurligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: psixolog, kasbiy kompetensiya, krizis, psixologik yordam, stress, intervensiya, rehabilitatsiya.

Abstract: This article analyzes the professional competence of a modern psychologist from the perspective of effective work in crisis situations. The psychological content of crisis states, their impact on an individual's psyche, and modern technologies for providing psychological assistance are examined. The article specifically discusses the psychologist's diagnostic, communicative, emotional stability, ethical, and reflective competencies. In addition, the stages of providing psychological first aid, crisis intervention, risk assessment, resource activation, and subsequent rehabilitation are explained on a scientific basis. The study substantiates the necessity for psychologists working in crisis situations to rely on the principles of humanism, caution, and professional responsibility.

Key words: psychologist, professional competence, crisis, psychological support, stress, intervention, rehabilitation.

Аннотация: В данной статье анализируется профессиональная компетентность современного психолога с точки зрения эффективной работы в кризисных ситуациях. Освещаются психологическое содержание кризисных состояний, их влияние на психику личности, а также современные технологии оказания психологической помощи. В статье отдельно рассматриваются диагностическая, коммуникативная, эмоциональная устойчивость, этическая и рефлексивная компетенции психолога. Также на научной основе разъясняются этапы оказания первой психологической помощи, кризисной интервенции, оценки рисков, мобилизации ресурсов и последующей реабилитации. В исследовании обосновывается необходимость опоры деятельности психолога в кризисных ситуациях на принципы гуманизма, осторожности и профессиональной ответственности.

Ключевые слова: психолог, профессиональная компетентность, кризис, психологическая помощь, стресс, интервенция, реабилитация.

KIRISH

Bugungi globallashuv va ijtimoiy o'zgarishlar davrida inson ruhiy hayotiga ta'sir qiluvchi omillar tobora murakkablashib bormoqda. Tabiiy ofatlar, oilaviy nizolar, zo'rvonlik, yaqin insonni yo'qotish, iqtisodiy qiyinchiliklar, migratsiya, kasbiy charchash, o'smirlar orasidagi xavfli xatti-harakatlar va ijtimoiy beqarorlik kabi holatlar shaxsni krizis vaziyatiga olib kelishi mumkin. Bunday sharoitda psixologning vazifasi faqat maslahat berish bilan cheklanmaydi; u insonning ruhiy xavfsizligini tiklash, emotsional zo'riqishni kamaytirish, vaziyatni anglashga ko'maklashish va shaxsning ichki resurslarini faollashtirishga xizmat qiladi.

Krizis - bu insonning odatiy moslashuv mexanizmlari yetarli bo'lmay qolgan, mavjud muammo esa shaxsning ruhiy muvozanatini izdan chiqargan holatdir. A. Roberts krizisni "shaxsning avvalgi tajribasi va mavjud psixologik resurslari bilan yenga olmaydigan keskin hayotiy vaziyat" sifatida talqin qiladi [2, 37]. Demak, krizisli vaziyatlarda psixologning kasbiy kompetensiyasi nazariy bilim, amaliy ko'nikma, axloqiy mas'uliyat va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatining uyg'unligidan iborat bo'ladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kasbiy kompetensiya psixologning o'z faoliyatini ilmiy, etik va amaliy jihatdan to'g'ri tashkil eta olish qobiliyatidir. U bir necha tarkibiy qismlardan iborat. Birinchidan, nazariy-metodik kompetensiya psixologik nazariyalar, shaxs rivojlanishi, stress, travma, motivatsiya, emotsional boshqaruv va muloqot qonuniyatlarini bilishni anglatadi. Ikkinchidan, diagnostik kompetensiya krizis darajasini, xavf omillarini, shaxsning resurslarini va yordamga ehtiyojini aniqlash imkonini beradi. Uchinchidan, kommunikativ kompetensiya ishonchli aloqa o'rnatish, faol tinglash, empatiya ko'rsatish, keskin hissiy holatdagi inson bilan ehtiyotkor muloqot qilishda namoyon bo'ladi.

Zamonaviy psixolog, ayniqsa, krizis vaziyatida betaraf kuzatuvchi emas, balki xavfsizlikni tiklash jara-yonining faol ishtirokchisidir. Uning har bir so'zi, tana tili, savoli va bahosi mijozning ruhiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun psixologda emotsional barqarorlik, o'z hissiyotlarini nazorat qilish, keskin vaziyatlarda vahimaga tushmaslik, muloqotda sokinlikni saqlash kabi sifatlar shakllangan bo'lishi zarur. G. Corey maslahat jarayonida mutaxassis shaxsiy pozitsiyasining yetukligi, kasbiy chegarani saqlashi va mijozga nisbatan hurmatli munosabati samaradorlikning muhim sharti ekanini ta'kidlaydi [8, 61].

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Krizisli vaziyatlar turlicha bo'lishi mumkin: shaxsiy krizis, oilaviy krizis, kasbiy krizis, ijtimoiy krizis, favqu-lodda holat yoki travmatik voqea oqibatidagi krizis. Ularning barchasida umumiy jihat mavjud: inson o'zini himoyasiz, yolg'iz, tushunilmagan yoki nazoratni yo'qotgandek his qiladi. Bunday vaqtda shaxsda qo'rquv, uyqusizlik, g'azab, aybdorlik hissi, yig'loqilik, befarqlik, vahima, o'zini ayblash yoki umidsizlik kuchayishi mumkin.

Krizisning xavfli tomoni shundaki, u vaqtida to'g'ri boshqarilmasa, depressiv holatlar, o'ziga zarar yetkazish xavfi, ijtimoiy izolyatsiya yoki uzoq muddatli psixologik travmaga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, krizis faqat salbiy hodisa emas; u shaxsning o'z hayotini qayta ko'rib chiqishi, qadriyatlarini anglash va yangi moslashuv strategiyalarini shakllantirish imkoniyati hamdir. J. Herman travmatik tajribadan keyingi tiklanishni uch asosiy yo'nalish - xavfsizlikni tiklash, voqeani anglash va ijtimoiy aloqalarni qayta qurish bilan bog'laydi [7, 155].

TAHLIL VA NATIJALAR

Krizisli vaziyatlarda psixologik yordam bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim.

Birinci bosqich – **xavfsizlikni ta'minlash va vaziyatni barqarorlashtirishdir**. Bu bosqichda psixolog mijozning jismoniy xavfsizligi, o'ziga yoki boshqalarga zarar yetkazish ehtimoli, tibbiy yordamga ehtiyoji va yaqin ijtimoiy qo'llab-quvvatlash manbalarini aniqlaydi. Krizis intervensiyasida birinchi savol "Nima bo'ldi?" emas, balki "Hozir xavfsizmisiz?" bo'lishi kerak. Chunki xavfsizlik hissi tiklanmasdan turib, chuqur psixologik tahlil samara bermaydi.

Ikkinchi bosqich – **psixologik birinchi yordamdir**. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti psixologik birinchi yordamda uch asosiy tamoyilni ajratadi: kuzatish, tinglash va bog'lash [1, 18]. "Kuzatish" insonning holatini, xavfsizlik darajasini va ehtiyojlarini baholashni anglatadi. "Tinglash" – uni majburlamasdan, hukm qilmasdan, sokin va samimiy tarzda eshitishdir. "Bog'lash" esa shaxsni zarur xizmatlar, yaqinlari, tibbiy yoki ijtimoiy yordam tizimlari bilan aloqaga kiritishni bildiradi. Bu yondashuvda psixolog mijozga ortiqcha savollar bermaydi, uni voqeani qayta-qayta gapirishga majburlamaydi, balki hozirgi ehtiyojini aniqlashga intiladi.

Uchinchinchi bosqich – **emotsional zo'riqishni kamaytirish texnologiyalaridir**. Bunda nafasni sekinlashtirish, yerga qaytarish mashqlari, tana sezgilarini anglash, qisqa relaksatsiya hamda "hozir va shu yerda" tamoyiliga asoslangan mashqlar qo'llaniladi. Masalan, mijozdan atrofdagi beshta narsani ko'rish, to'rtta tovushni eshitish, uchta jismni ushlab ko'rish, ikkita hidni sezish va bitta ijobiy fikrni aytish so'raladi. Bu oddiy texnika vahima holatida ongni travmatik tasavvurlardan real vaziyatga qaytarishga yordam beradi.

To'rtinchi bosqich – **krizisli fikrlashni qayta tuzishdir**. Krizis paytida inson ko'pincha "Hammasi tugadi", "Men aybdorman", "Hech kim yordam bermaydi" kabi keskin va umumlashtirilgan fikrlarga beriladi. Psixolog bunday fikrlarni inkor etmaydi, balki ularni yumshoq savollar orqali aniqlashtiradi: "Sizda hozir qanday dalillar bor?", "Bu vaziyatda sizga yordam bera oladigan kimdir bormi?", "Oldin qiyin vaziyatdan chiqqan paytingiz bo'lganmi?" Shu tariqa mijozning idroki kengayadi, u muammoni yagona fojea sifatida emas, balki yechim izlash mumkin bo'lgan vaziyat sifatida ko'ra boshlaydi.

Beshinchi bosqich – **resurslarni faollashtirishdir**. Resurslar ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Ichki resurslarga sabr, tajriba, e'tiqod, bilim, oldingi muvaffaqiyatlar va o'zini boshqarish ko'nikmalari kiradi. Tashqi resurslar esa oila, do'stlar, mahalla, ta'lim muassasasi, tibbiyot xizmati, huquqiy yordam va ijtimoiy tashkilotlardan iborat.

S. Hobfoll va hammualliflari travmadan keyingi yordamda xavfsizlik, tinchlanish, o'ziga va jamiyatga ishonch, ijtimoiy bog'liqlik hamda umid hissini tiklash muhimligini ko'rsatadi [4, 285]. Demak, psixologning vazifasi mijozni faqat suhbat orqali tinchlantirish emas, balki uni real yordam tarmoqlari bilan bog'lashdan ham iborat.

Krizis vaziyatida psixologning etik mas'uliyati yanada ortadi. Chunki mijoz zaif, ta'sirchan va qaror qabul qilishda qiynalayotgan bo'lishi mumkin. Bunday paytda psixolog mijozga bosim o'tkazmasligi, shaxsiy fikrini majburlamasligi, diniy, siyosiy yoki shaxsiy qarashlar asosida baho bermasligi kerak. Maxfiylik tamoyili saqlanadi, biroq mijoz o'ziga yoki boshqalarga zarar yetkazish xavfi ostida bo'lsa, mutaxassis zarur himoya choralarini ko'rishga majburdir. Kasbiy chegara ham muhim ahamiyatga ega. Psixolog shifokor, tergovchi, advokat yoki yaqin qarindosh rolini egallamasligi lozim. U o'z vakolati doirasida ishlaydi, zarur hollarda psixiatr, nevropatolog, ijtimoiy xodim, huquqshunos yoki tibbiyot muassasasiga yo'naltiradi. R. James va B. Gilliland krizis intervensiyasida mutaxassisning asosiy vazifasi mijozni qaram holatda ushlab turish emas, balki uning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini tiklash ekanini ta'kidlaydi [3, 94].

Zamonaviy psixologning krizisli vaziyatlarda samarali ishlashi doimiy tayyorgarlikni talab qiladi. Buning uchun psixolog nazariy bilim bilan birga treninglar, superviziya, amaliy keyslar tahlili, rolli mashg'ulotlar va refleksiv kundalik yuritish orqali o'z malakasini oshirib borishi zarur. Ayniqsa, o'z joniga qasd qilish xavfini baholash, zo'ravonlik qurbonlari bilan ishlash, bolalar va o'smirlar krizisi, oilaviy nizolar hamda favqulodda vaziyatlardan keyingi psixologik yordam kabi yo'nalishlarda maxsus tayyorgarlik talab etiladi. Bundan tashqari, psixolog o'zining kasbiy charchash holatini ham nazorat qilishi lozim. Doimiy ravishda og'ir hayotiy voqealarni eshitish, inson iztiroblari bilan yuzma-yuz kelish, yuqori mas'uliyat va tezkor qarorlar qabul qilish mutaxassisning o'zida ham ikkilamchi travma yoki emotsional kuyish holatini keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli psixolog uchun superviziya, hamkasblar bilan kasbiy muhokamalar, dam olish rejimi, shaxsiy terapiya va sog'lom turmush tarzi kasbiy barqarorlikning muhim shartlari hisoblanadi. K. Kanel krizis mutaxassisi o'z ruhiy holatini boshqara olmasa, mijoz uchun barqaror tayanch bo'la olmasligini alohida qayd etadi [6, 241].

XULOSA

Zamonaviy psixologning kasbiy kompetensiyasi krizisli vaziyatlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki krizis inson hayotidagi eng nozik, xavfli va ayni paytda o'zgarishlarga ochiq davrdir. Bunday sharoitda psixologdan chuqur nazariy bilim, tezkor diagnostika, ishonchli muloqot, emotsional barqarorlik, etik mas'uliyat va amaliy texnologiyalarni to'g'ri qo'llash talab etiladi.

Krizisli vaziyatlarda samarali yordam bir martalik maslahat emas, balki xavfsizlikni ta'minlash, psixologik birinchi yordam ko'rsatish, emotsional zo'riqishni kamaytirish, xavfni baholash, resurslarni faollashtirish va keyingi reabilitatsiyaga yo'naltirishdan iborat tizimli jarayondir. Psixologning vazifasi mijoz o'rniga qaror qabul qilish emas, balki uning ichki kuchini uyg'otish, real yordam manbalarini topish va hayotiy muvozanatni qayta tiklashga ko'maklashishdir. Shunday ekan, krizisli vaziyatlarda ishlash texnologiyalarini egallash har bir zamonaviy psixologning zarur kasbiy burchi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Health Organization, War Trauma Foundation, World Vision International. Psychological First Aid: Guide for Field Workers. Geneva: World Health Organization, 2011. – 64 p.
2. Roberts A. R. Crisis Intervention Handbook: Assessment, Treatment, and Research. 4th ed. New York: Oxford University Press, 2015. – 872 p.
3. James R. K., Gilliland B. E. Crisis Intervention Strategies. 8th ed. Boston: Cengage Learning, 2017. – 752 p.
4. Hobfoll S. E., Watson P., Bell C. C., Bryant R. A., Brymer M. J., Friedman M. J. et al. Five Essential Elements of Immediate and Mid-Term Mass Trauma Intervention: Empirical Evidence // Psychiatry: Interpersonal and Biological Processes. – 2007. – Vol. 70, No. 4. – P. 283-315.
5. Everly G. S., Lating J. M. The Johns Hopkins Guide to Psychological First Aid. Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2017. – 232 p.
6. Kanel K. A Guide to Crisis Intervention. 6th ed. Boston: Cengage Learning, 2018. – 368 p.
7. Herman J. L. Trauma and Recovery: The Aftermath of Violence – From Domestic Abuse to Political Terror. New York: Basic Books, 2015. – 336 p.
8. Corey G. Theory and Practice of Counseling and Psychotherapy. 10th ed. Boston: Cengage Learning, 2017. – 560 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.